

MATEMATIKANI CHUQURROQ O'RGANISHDA CHET TILINING AHAMIYATI

Ismoilova Shamsiyabonu Ulug'bek Qizi

Hammamizda birinchi navbatda savol tug'ilishi mumkin: xorijiy tilning matematikaga qanday bog'liqligi bor? Hech kimga sir emaski, matematika qadimdan rivojlanib turli tillarda o'qitib kelgan. Ya'ni arab, fors, hind, yunon kabi har bir millat o'z avlodlariga bu fanni o'qitishgan. Matematika juda qadimiy fanlardan biri bo'lib, uzoq rivojlanish tarixini bosib o'tgan va buning barobarida „matematika nima?“ degan savolga javob ham o'zgarib, chuqurlashib borgan. Masalan, Yunonistonda matematika deganda geometriya tushunilgan. IX—XIII asrga kelib matematika tushunchasi algebra deb kengaytirgan.

Matematikani rivojlantirishga ozining juda katta hissasini qo'shgan olimlardan biri bu, hech shubhasiz, Al-Xorazmiydir.

Al-Xorazmiy birinchi navbatda buyuk matematik sifatida namoyon bo'ldi. U o'zigacha butun sharq ilm-fani to'plagan matematik bilimni umumlashtirib, uni o'zining natijalari bilan boyitib bordi va fanda mutlaqo yangi soha — algebraga asos soldi. Al-Xorazmiygacha bo'lgan davrda faqat eng sodda algebraik tenglamalargina o'rganilar, masalalarni alohida tenglama sifatida qaralar va ular orasidagi qonuniyatlar nazardan chetda qolar edi. Al-Xorazmiy tarixda ilk bora har qanday chiziqli va kvadrat tenglamalar uchun tatbiq etish mumkin bo'lgan algebraik usul va formulalarni ishlab chiqdi, ularni tasnifladi hamda aniq ta'rifini keltirdi. Aynan al-Xorazmiydan boshlab matematikada ramziy harfiy ifodalash joriy etildi va uning mutlaqo yangi sohasi — algebra mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Uning asarlari keyingi davrda Yevropada lotin tiliga o'girildi va Uyg'onish davri Yevropa ilm-fani rivojiga ulkan ta'sir o'tkazdi.

Hozirgi davrga kelib xorijiy tillarni o'rganish va hisob-kitobni chuqur bilish hayotning asosiy talablaridan bo'lib qolmoqda va shu sababli matematikani chet tilida o'qishga ixtisoslashtirilgan ko'plab maktablar faoliyat yuritmoqda.

Keling aksariyat matematik terminlarning fransuzcha va inglizcha nomlanishini ko'rib chiqamiz.

Fransuzcha:

abscisse -absissa (nuqtaning tekislikdagi yoki fazodagi vaziyatini aniqlovchi koordinatalardan biri).

acolade-katta qavs (bir necha qatorni birlashtirishga xizmat qiladigan belgi).

addition-qo'shish

angle-burchak

côté- tomon, taraf

divise par- bo'lish

egale - tenglik

Inglizcha:

Mathematics- matematika

add-qo'shish

being - bo'lish

Increase- ko'paytirish

equality- tenglik

subtract- ayirish

Biz hozirgi aqtda foydalanayotgan raqamlar aslida Xorazmiy tomonidan yaratilgan hind raqamlaridir. Keyinchalik ular arab raqamlariga aylangan va butun dunyo foydalana oladigan raqamlar bo'lib qolgan. Keling ungacha foydalanilgan rim raqamlari bilan farqlaymiz:

I - 1 - bir

II - 2 - ikki

III - 3 - uch

IV - 4 - to'rt

V - 5 - besh

VI - 6 - olti

VII - 7 - yetti

VIII - 8 - sakkiz

IX - 9 - to'qqiz

X - 10 - o'n

XL - 40 - qirq

L - 50 - ellik

XC - 90 - to'qson

C - 100 - yuz

CC - 200 - ikki yuz

CD - 400 - to'rt yuz

D - 500 - besh yuz

M - 1000 - ming